

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University


4/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

4/2025

Kenjayev S.N.	Amir Temurning tashqi siyosatida: tibet xalqlari va buddaviylik	167
Jamolova D.K.	Buxoroda gidlik va turizm: shaharning tarixiy merosiga nazar (somonilar maqbarasi misolida)	171
Boltayev B.B.	Yurtimizdagi ilk muzeylarning shakllanishi va bosib o'tgan taraqqiyot yo'li	175
Baxtiyorov B.B.	Afshona qishlog'i tarixiga bir nazar	180
Orunbayev A.	Ittihad va taraqqiy harakati davridagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatlarning tahlili	184
Xurramov A.R.	Poykent arxeologik yodgorligini muzeylashtirishning tarixiy asoslari	190
Murodova D.Sh., Rajabova M.U.	Buxorodagi so'nggi arxeologik tadqiqotlar	194
Савриев Ж.Ф.	Навоий вилоятининг тарихий объектларини асраб қолишда замонавий шаҳарсозлик муаммолари	198
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
To'ychiyeva R.A.	"Strategik avtonomiya" zamonaviy Hindiston tashqi siyosatining bosh tamoyili sifatida	202
Nadjimov F.K.	O'zbekistonda siyosiy yangilanishlar davrida tashqi hamkorlik masalalari	206
Uzoqov I.Sh.	Siyosiy madaniyat: tushuncha, mazmun-mohiyat	210
Surobova R.Z.	Tarix falsafasining asosiy tamoyillari va ularning axloqiy tarbiyaga ta'siri	214
IQTISOD *** ECONOMY *** ЭКОНОМИКА		
Shoyimov Sh.Sh.	Ommaviy xizmat ko'rsatish modellarining tarkibiy qismlari va tasnifi	217

AFSHONA QISHLOG'I TARIXIGA BIR NAZAR

Baxtiyorov Behruz Bobirovich,

Buxoro davlat universitetining "Arxeologiya va

Buxoro tarixi" kafedrası tayanch doktoranti,

"Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa"

kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro vohasining qadimiy aholi manzillaridan biri hisoblangan Afshona qishlog'ining tarixi hamda mazkur qishloq nomining kelib chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar ilmiy maqola va asarlar asosida tahlil qilishga harakat qilingan. Shu bilan birgalikda, davlatimiz mustaqilligi sharofati bilan qishloq joylarida amalga oshirilgan va kelgusida qilinishi kerak bo'lgan reja hamda dasturlarning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, hokim, podsho, masjid, qo'lyozma, eksponatlar, muzey, hisor, voha, dehqonchilik, savdo-sotiq, turon, lashkarboshi, qal'a, ustaxona, Ustrushona, afshin.

ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ СЕЛА АФШОНА

Аннотация. В данной статье предпринята попытка проанализировать историю селения Афшона, одного из древних поселений Бухарского оазиса, и происхождение названия этого селения на основе научных статей и трудов. Вместе с тем раскрыто значение планов и программ, реализуемых на селе и которые необходимо реализовать в будущем благодаря независимости нашей страны.

Ключевые слова: Средняя Азия, правитель, царь, мечеть, рукопись, экспонаты, музей, крепость, оазис, сельское хозяйство, торговля, Туран, генерал, крепость, мастерская, Уструшона, афшин.

A LOOK AT THE HISTORY OF THE VILLAGE OF AFSHONA

Abstract. This article attempts to analyze the history of the village of Afshona, one of the ancient settlements of the Bukhara oasis, and the origin of the name of this village based on scientific articles and works. At the same time, the significance of plans and programs implemented in rural areas and which need to be implemented in the future thanks to the independence of our country is revealed.

Keywords: Central Asia, ruler, king, mosque, manuscript, exhibits, museum, fortress, oasis, agriculture, trade, Turan, general, fortress, workshop, Ustrushona, afshin.

Kirish. Tarixdan ma'lumki, qishloq manzilgohlari shaharlarga qaraganda ancha ilgari paydo bo'lgan. Shu jihatdan olib qarasak, dastlabki qishloq jamoalari tarixi ham bir necha ming yillarga borib taqaladi. Qishloqlarda odamlarning uy-joylari, uy-ro'zg'or buyumlari, ish qurollari, to'qimachilik mahsulotlari, temirchilik yoki sopol buyumlar ishlab chiqarish ustaxonalari mavjud bo'lgan. Bundan tashqari azaldan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanish qishloqlar hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki aholining asosiy daromadi ham aynan shu sohalaridan kelgan. Ana shunday qishloqlardan biri Afshona qishlog'i bo'lib hisoblanadi. Afshona qishlog'i o'zining kelib chiqishiga ko'ra Buxoroning qadimiy aholi manzillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda Afshona qishlog'i O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati Peshku tumanida, Buxoro shahridan 30 kilometr shimoli-sharqda joylashgan qadimiy qishloqlardan biridir. Musulmon sharqining deyarli barcha mamlakatlarida bo'lgan mashhur arab geografi va sayyohi Maqdisiy (Muqaddasiy)ning "Ahsan attaqosim fi ma'rifat alaqolim" (Iqlimlarni o'rganish uchun eng yaxshi qo'llanma) asarida ko'plab yirik shahar va qishloqlarning geografik holati, tabiiy sharoitlari, me'moriy yodgorliklari, aholisi, urf-odatlar va mashhur kishilari to'g'risidagi muhim ma'lumotlar o'z aksini topgan. "Maqdisiyning yozishicha: Afshona Buxoroning g'arbiy tomonida joylashgan. Unda ko'plab odamlar istiqomat qilib kelgan. Hududi katta, toza va chiroyli bo'lgan. Yoqutiy asarlarida ham mazkur hududning Buxoro vohasining qishloqlari qatorida tilga olinganligi ham mazkur hududning boy tarixidan dalolat beradi. As-Samaoniy asarlarida esa qishloq nomi "Fashna" shaklida uchraydi" [1-2b]. Dastlab qishloq nomining qisqacha kelib chiqish tarixi va etimologiyasiga to'xtalsak, maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi. Afshona so'zi turli xil shakllarda tarixiy manbalar va adabiyotlarda uchraydi. Xususan, afshin, fsin, fashna, afshona, haftshina, al-afshin va boshqalar shular jumlasidandir.

Asosiy qism. Afshona soʻzi “Afshin”- “hokim” degan soʻzdan kelib chiqqan boʻlishi ehtimoldan yiroq emas. Bilamizki, ilk oʻrta asrlarda Turon diyorida bir qancha mustaqil hokimliklar mavjud edi. Ularni esa turli unvonlar va nomlar bilan hokimlar idora qilishgan. Misol uchun, Soʻgʻdda “ixshid”, Fargʻona hokimligida “podsho”, Qarluqda “jabgʻu”, toʻqqiz oʻgʻuzda “xoqon”, turklarda “tarxon” va Ustrushona (Jizzax bilan Oʻratepa oraligʻida joylashgan tarixiy hudud) da “*afshin*” atamasi bilan atalgan [2-56 b]. Afshona toponimi esa aynan mazkur soʻzning koʻplikdagi shakli hisoblanadi. Bundan tashqari V. F. Minorskiyning yozishicha, 9-10-asrlarda Ozarbayjonda hukmronlik qilgan Sojidlal sulolasi vakillari ham oʻzlarini afshinlar deb atashgan. Afshin atamasi koʻrinib turganidek, Ustrushona hokimligi va uning hukmdorlarining nomi bilan ham bevosita bogʻliq. “Ustrushona - Oʻrta Osiyodagi qadimgi aholi manzillaridan boʻlib, u ilk oʻrta asrlarda Fargʻona vodiysining shimoli-sharqiy qismida, Sirdaryoning oʻrta oqimidagi chap qirgʻogʻi boʻylab Isfara daryosi chegaralariga qadar va janubi Hisor tizmasi boʻylab choʻzilgan hududlarni oʻz ichiga olgan” [3-305 b]. Ustrushona toponimlari tadqiqotchisi A.R.Ayubovning fikriga koʻra “Ustrushona 18 mintaqaga boʻlingan va 400 ga yaqin qalʼalarga ega boʻlgan. Tili va madaniyati jihatidan ular Soʻgʻdiylar bilan qarindosh edilar. Soʻgʻd, fors tillari esa asosiy muloqot tili hisoblangan hamda zardushtiylik diniga etiqod qilishgan. IV asrgacha Ustrushona Soʻgʻd tarkibida boʻlgan. Ustrushona hukmdori afshin unvonini olgan”[4-314 b]. VI asrda Ustrushona Eftalitlar davlati va 560-yillardan Turk xoqonligi hukmronligi ostida boʻlgan. Keyinchalik Oʻrta Osiyo arablar tomonidan fath etilgach, ushbu hokimlik ham arablar boshqaruviga oʻtgan. Shunday boʻlishiga qaramay, mahaliy hokimlar afshin unvoni bilan mamlakatini idora qilishda davom etishgan. Bundan tashqari arab geografi va sayyohi Yaʼqubiy asarida ham Soʻgʻdiyona hokimi Gʻurak Qutayba ibn Muslim bilan tuzgan shartnomasida oʻzini Soʻgʻdixshidi, Samarqand afshini deb atagani haqida tarixiy maʼlumotlar mavjud [5-344 b]. Ushbu nomning kelib chiqishini batafsil tarixiy va etimologik tahlili olim va filolog V. I. Abayev tomonidan olib borilgan va uning osetin tilida saqlanib qolgan “fsin” soʻzidan kelib chiqqanligini isbotlagan. Bu sak-massaget qabilalari yetakchilarining nomi edi va keyinchalik bu unvon Markaziy Osiyodagi qoʻshni qabilalar tomonidan oʻzlashtirilgan.

Shahar manbalarda “Afshina” deb ham tilga olinadi. Afshina nomi turkiy til anʼanalariga koʻra ikki soʻzdan tuzilgan. Qadimgi turkiy tilda af yoki ev, ab uy degan maʼnoni anglatga, shina ashinalar atamasining qisqargan holatidir. Yaʼni ashinalar yashaydigan qishloq degan maʼnoni bildiradi. Afshina qishlogʻi Turk yabgʻularning Soʻgʻddagi qarorgohi boʻlgan. Afshina yirik shaharlardagi kabi soʻgʻdiy va turkiy tilda emas, faqat turkcha soʻzlashgan [6-6 b]. Soʻgʻdda afshinlar Soʻgʻd shahar-davlatlarining hukmdorlari boʻlib, baʼzan suveren, lekin koʻpincha qaram edi. Samarqand atrofida Umum soʻgʻd konfederatsiyasining tashkil topishi bilan uning hukmdori Samarqand afshini umum soʻgʻd ixshidiga aylandi. Odatda boshqa shaharlardagi oʻgʻillari va merosxoʻrlariga afshin unvonlarini bergan. Shunday qilib, agar ixshid taxtini boshqa shaharning afshini egallagan boʻlsa, bu holda unga Samarqand afshini unvoni berilmagan. Shuningdek, bu unvon sohibi ixshid unvonini olmagan holda Soʻgʻdiyoning oliy hukmdori boʻlishi mumkin edi [7-51-54 b].

Xitoy yilnomalarida vang unvoni ham “afshin” unvoniga oʻxshash sifatida ishlatilgan. Soʻgʻd hujjatlarida, jumladan, Mugʻ togʻi arxivida “afshin” unvoni uchramaydi. Bu unvon arablar tomonidan mustaqil Soʻgʻd davlati tugatilgandan soʻng asta-sekin qoʻllanilmay qolgan, biroq IX asrning birinchi oʻn yilliklarida ham “al-Afshin” islomlashgan shaklida qoʻllanilgan [8-111 b].

Narshaxiyning yozishicha, “X asrda Afshona qishlogʻi kichik ammo mustahkam shahristonga va katta hisorga ega boʻlib, bir qancha qishloqlar unga mansub boʻlgan. Bu yerda haftada bir kun bozor boʻlgan. Bu qishloqning ekin yerlari va biyobonlari Madrasa talabalariga Ismoil Somoniy tomonidan vaqf qilib berilgan. Qutayba ibn Muslim ham aynan ushbu hududda masjidi jome bino qilgan. Shu bilan birgalikda, Muhammad ibn Vose ham bir masjid qurdirgan. Bu yer duo qabul boʻladigan joy sifatida eʼtirof etilgan. Odamlar shahardan u joyga borganlar va uni tabarruk deb hisoblaydilar. Shunga koʻra Afshona soʻgʻdcha “duo tezroq mustajob boʻladigan muqaddas joy” maʼnosini ham anglatadi.

Buxoro davlat universiteti professori, H.H.Toʻrayevning ham “Buxoro toponimikasi” nomli kitobida Afshona qishlogʻiga quyidagicha tarif berib oʻtilgan. Afshona - Haftshona yaʼni yetti tarmoq soʻzidan olingan boʻlib, katta suvning yetti yoʻnalishga boʻlinganligiga qiyos qilingan degan fikr keltirilgan [9-163 b].

Shu oʻrinda aytib oʻtish joizki, oʻrta asrlarda Afshona qishlogʻida buyuk olim Ibn Sino yetishib chiqqan. Ibn Sinoning asl ismi Husayn boʻlgan, “Abu Ali” esa uning kunyasidir. Otasining ismi Abdulloh, onasining ismi Sitorabonu boʻlib, u afshonalik edi. Rivoyatlarga koʻra, Ibn Sinoning otasi Abdulloh asli Balx shahridan boʻlgan va Afshonaga kelib, Qoqishtivon arigʻi boʻyidagi bir kishining uyida yashab yuradi. Shu paytlarda uy egasining Sitorabonu ismli qizini yaxshi koʻrib qoladi. Abdulloh oʻqimishli, odobli yigit ekan. Otasi Sitorabonuni shu yigitga berib, kuyov qilib oladi. Oradan bir yil oʻtib, ular oʻgʻil farzand koʻrishadi. Bolaga Husayn deb ism qoʻyadilar [10-3 b]. Qishloqda 980-yilda Ibn Sino va 985-yilda ukasi Mahmud dunyoga kelgan. Ibn Sino besh yoshigacha Afshonda yashagan, keyin oilasi Buxoroga koʻchib kelgan.

Hozirgi kunda Afshona Peshku tuman markazi bo'lgan Yangibozor shaharchasi yaqinidagi kata bir qishloq bo'lib hisoblanadi. Hamma qishloqlar singari ikki tarafi quyuq daraxtzor yo'ldan kirib boriladi. Qishloqning qoq markazida qadimgi shahristonlardagi singari mahobatli va so'lim majmuaga duch kelasiz. Bu yashil xiyobon o'rtasida alloma haykali, to'g'rida tibbiyot kollejining ulkan binosi va o'ng tomonda esa Ibn Sino muzeyi joylashgan. 1980 yilda buyuk olim tavalludining 1000-yilligi Afshonada tantanali nishonlandi va mazkur hududda muzey ish faoliyatini boshladi. Shu munosabat bilan Afshonada ikkita sopol gumbazli, eshik va ustunlari o'yilgan, devor bezaklari bilan bezatilgan muhtasham dam olish maskani qurilgan. Muzey 7 ta zal va 9 ta bo'limdan iborat. Muzeyga tashrif buyurgan kishi o'zini o'sha davrga tushib qolgandek his etadi. 2006-yilda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan muzeyning bugungi binosi qayta qurildi hamda bebaho eksponatlar bilan boyitildi. Muzeyda biz milodiy 980 – 1037-yillarda yashab o'tgan tib ilmining mumtoz bilimdoni, qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning hayoti va ijodi bilan tanishishimiz mumkin. Bu yerdagi ulug' tabib tomonidan o'rta asrlarda foydalanilgan tibbiy asboblarni nusxalari (Fransiyada tayyorlab keltirilgan) va boshqa uy - ro'zg'or buyumlari kishini hayratga soladi. "Avitsena-Fransiya" assotsiatsiyasi sovg'a qilgan "Tib qonunlari" kitobining lotin tilidagi qadimiy nusxasi, tabib asarlarining 1447-1448-yillardagi qo'lyozmasi muzeyning noyob eksponatlaridandir [11-25 b].

2022-2026-yillarda Buxoro viloyatida turizmni yanada rivojlantirish uchun turizm infratuzilmasini tashkil qilish maqsadida Peshku tumanidagi Abu Ali ibn Sino muzeyida eksponatlar va tarixiy ashyolar sonini ko'paytirish jumladan, Ibn Sino qalamiga mansub Turkiya, Buyuk Britaniya va Fransiya muzeylarida saqlanayotgan qo'lyozma va eksponatlar nusxalarini ko'chirib olib kelish va joylashtirish ishlari rejalashtirilgan.

Bugungi kunda Ibn Sino muzeyidan ziyoratchilarning qadami uzilmaydi. Shifokorlar ham shu yerda qasamyod qabul qiladi. Nikohdan o'tayotgan kelin-kuyovlar, avvalo, muzey oldidagi Ibn Sino haykali poyiga gul qo'yishadi. Istiqol tufayli, bu mo'tabar zotlarning nomlari tiklandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ostona shahrida bo'lib o'tgan Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo'yicha birinchi sammitida qatnashib, o'zbek tilida so'zlagan nutqi ham e'tiborga molikdir. : "Markaziy Osiyo islom olami jahon fani va sivilizatsiyasiga qo'shgan beqiyos hissasi bilan faxrlanishga to'la haqlidir. Xususan, bu hududlar Sharq Renessansining yirik markazlaridan biri sifatida butun dunyoda ma'lum va mashhur bo'lgan. Bu haqida gapirganda, avvalo, ulug' vatandoshlarimiz algoritm asoschisi al-Xorazmiy, qomusiy olim al-Farg'oni, geodeziya va mineralogiya fanlari rivojiga ulkan hissa qo'shgan Abu Rayhon Beruniy, g'arbda Avitsenna nomi bilan tanilgan Ibn Sino, davlat arbobi va buyuk astronom Mirzo Ulug'bek singari mutafakkir zotlarning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz". 2024-yil 5-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buxoro viloyatida sanoat va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida Peshku tumani Afshona qishlog'ida Abu Ali ibn Sino davriga oid qadimiylikni o'zida aks ettirgan etnik turizm shaharchasi barpo etish bo'yicha amaliy ishlar boshlandi. Shu munosabat bilan Buxoro viloyati turizm boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari S.Bobokalonov, Peshku tumani hokimi H.Davlatov hamda ushbu loyihani amalga oshiradigan tadbirkorlar ishtirokida uchrashuvlar o'tkazilib, kelgusidagi ishlar belgilab olindi. Bugungi kunda Peshku tumani "Ibn Sino" mahalla fuqarolar yig'ini, Afshona qishlog'i hududining yer maydoni 1003 gektarni tashkil etadi va 4005 nafar aholi istiqomat qilib kelmoqda.

"Buxoro jahon madaniyatining eng qadimiy maskanlaridan biri ekanligi hech kimga sir emas. Viloyatdagi 829 ta madaniy yodgorliklarning 287 tasining tarixi bir necha ming yilliklarga borib taqaladi. Shu bois, Buxoroda turizmni jadal va samarali rivojlantirish bo'yicha alohida dastur amalga oshirish rejalashtirib kelinmoqda. Yaqinda YUNESKO tomonidan Buxoroning yana 7 ta qadimiy obidalarini Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. Ularni hamda viloyatdagi yana 800 dan ziyod tarixiy boyligimiz bo'lgan madaniy obyektlarni birma-bir kelgusida restavratsiya qilish rejalashtirilgan. Ayniqsa, Afshona qishlog'ida Buxoro shahridagi eng zamonaviy jihozlangan tarix muzeyi tashkil etilishi va unda viloyatda mavjud 130 mingdan ziyod eksponatdan, Buxoro tarixining eng noyob durdonalarining joylashtirilishi belgilangan[12-8b].

Xulosa qilib aytganda, Afshona qishlog'i Buxoroning tarixiy aholi manzillaridan biri sanaladi. Insonlar azaldan bu hududlarni o'zlari uchun o'troq manzillari sifatida ko'rib, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, temirchilik kabi sohalarni kasb qilib olganlar. Ayniqsa hisorlarining dovrug'i qo'shni o'lkalarda ham ma'lum va mashhur hisoblangan. Bundan tashqari bu diyorda jahon ilm-fanida ayniqsa tibbiyot sohasiga o'chmas iz qoldirgan vatandoshimiz Abu Ali Ibn Sino voyaga yetgan. Shu munosabat bilan tashkil etilgan muzeylar, allomaning haykali va tug'ulib o'sgan qishlog'i hamda boshqa tarixiy obyektlar hali hanuz mahalliy va chet-el fuqarolarining qiziqishiga sabab bo'lmoqda desak yanglishmaymiz. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari tomonidan Buxoro turizmini yangi bosqichga chiqarish va jadal sur'atlarda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'ylaymizki, mahalliy aholining qo'llab-quvvatlashi hamda davlatimiz rahbarining

HISTORY

tashabbuslari bilan Afshona qishlog'i yuksalishda davom etadi va ko'plab buyuk shaxslarni yetishtirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/w/index.php?title=Afshona&wprov=rarw1>
2. Suyun Qorayev O'zbekiston viloyatlari toponimlari "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2005-yil, 56- bet
3. M.H.Pardayev, B.B.To'ychiboyev. *Ustrushona qadimda va ilk o'rta asrlarda*. Toshkent.: 2017-y.
4. Pardayev M.H., G'ofurov J.I. *Ustrushonaning ilk o'rta asr qishloq makonlari (yozma va arxeologik manbalar asosida)*. Toshkent.:2016-y.
5. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
6. Azimxo'ja Otaxo'jayev. *Abu Ali ibn Sino. Toshkent "Abu matbuot-konsalt" 2011. 6-bet.*
7. Б. С. Гойибов "Из истории арабских завоеваний в Согде: к биографии Деваитича, сына Йодахишитака" // Вопросы исторической науки: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Москва, январь 2015 г.). - М.: Буки-Веди, 2015. - С. 51-54.
8. Minorsky V. *Studies in Caucasian History*. - London, 1953.- С. 111, прим. 1.
9. H.H.To'rayev "Buxoro toponimikasi".-Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2021.-276 b.
10. <https://uzhurriyat.uz/2017/09/20/afshonaga-safar/>
11. A.I.To'rayev "O'zbekistonda davlat muassasalari tarixi",-:B. " Muhammad poligraf" nashriyoti (o'quv qo'llanma) 2023.B.244
12. <https://n.ziyouz.com>